

TOPISHMOQLARNING IJTIMOIIY –MADANIY O'ZIGA XOSLIKLARI

Adizova Obodon Istamovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti,

Annotatsiya. Maqolada folklorshunoslikda topishmoqlar janrining o'rni va uning taraqqiyoti haqida ma'lumotlar keltirilgan. Folklorshunoslikda topishmoqlarning berilishi, milliylik tushunchalari va xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, xalq topishmoqlarining mavzusiga ko'ra rang-barangligi, ularning mazmuni hayotning barcha qirralarini qamrab olganligi, hamda topishmoqlarning qadimdan hozirgacha yaratilib kelishi va ularning yozma adabiyotdagi o'rni haqida ma'lumotlar tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: folklorshunos, adabiyotshunoslik, topishmoqlar, janr, taraqqiyot, xalq og'zaki ijodi, tarixiy matn, xarakter, urf-odat, etnografiya, milliylik, qadimiy, yozma adabiyoti, tushuncha, xususiyati, xalq topishmoqlari.

СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАГАДОК

Адизова Ободон Истамовна

Бухарский государственный университет, Факультет иностранных языков, Доцент кафедры французской филологии

Annotatsiya: В данной статье представлены сведения о роли жанра загадки в фольклоре и его развитии. В фольклоре изучаются загадки, понятия и характеристики народности. Также проанализированы сведения о разнообразии народных загадок по теме, их содержанию, охватывающем все стороны жизни, а также о том, что загадки создавались с древнейших времен и их место в письменной литературе

Ключевые слова: фольклорист, литературоведение, загадки, жанр, развитие, фольклор, исторический текст, персонаж, традиция, этнография, национальность, древняя, письменная литература, понятие, особенность, народные загадки.

SOCIO-CULTURAL FEATURES OF RIDDLES

Adizova Obodon Istamovna

Bukhara State University, Faculty of Foreign Languages, Doktor at the Department of French Philology

ABSTRACT: The article: The article provides information about the role and development of the riddle genre in folklore. Folk art studies the secrets, concepts and characteristics of the people. Also, information about the variety of folk riddles related to the topic, their content, covering all aspects of life, the fact that riddles have been created since ancient times, and their place in written literature is analyzed.

Key words: folklorist, literary criticism, riddles, genre, development, folklore, historical text, character, tradition, ethnography, nationality, ancient, written literature, concept, feature, folk riddles.

Kirish: Topishmoq folklorning qadimiy janrlaridan biridir. Uning paydo bo'lishi, qadimiy vazifasi va dastlabki shakli haqida olimlar turli-tuman qarashlarni ilgari surganlar. Mashhur folklorshunos olim E.B.Taylorning fikricha, topishmoq madaniyat tarixida maqol bilan birga paydo bo'lgan bo'lib, uning gullagan davri sivilizatsiyaning quyi va o'rta bosqichlariga to'g'ri keladi. Uningcha, topishmoq an'anaviy savol – javob shaklidagi odatda quruq hazilga olib boruvchi hozirgi so'z o'yini emas, balki u jiddiy javob berishni talab qilgan qadimiy shaklda tuzilgan topshiriqdir. [1, 14] Topishmoqlar shartli yashirin nutq asosida yuzaga kelgan bo'lib, uning zamini kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bila borish va idrok etish darajasi bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, 3.Husainovanning yozishicha: «O'tmishda tabiat va tabiat hodisalarining o'zi bir jumboq bo'lganki, odamlar uning sirini bilmaganlar va echa olmaganlar, ularga u sirlar bir mo'jizaday bo'lib ko'ringan... Shaxs o'zini qurshab turgan tashqi obyektiv olamni taniy boshlagan bir paytda undagi narsa va hodisalarning qaysi yo'l bilan yaratilishini anglash, bilish istagida narsa va hodisalarni bir-biriga solishtirish, qiyoslash va ba'zan qarama-qarshi qo'yish bilan o'rgana boshlagan. Ular quyosh, oy, yulduzlar harakatining, chaqmoq chaqishi, ko'k

guldurashi, bulut kelishi, shamol esishi, qor-yomg'ir yog'ishi kabilarning mohiyatini to'la anglab etmaganlar va animistik tushunchalarga asoslanib, ularning hammasida jon bor, deb tasavvur qilganlar. Bunday tushunchalarning ba'zi ko'rinishlari topishmoqlarda ham uchraydi. «Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi» topishmog'ida quyosh, oy, yulduzlar insonga qiyos qilinib, jonlantirib berilishi ibtidoiy tushunchalar bilan bog'liq. Chunki inson hali tabiat va uning sirlarini to'g'ri tushunib eta olmagan, totemistik tushunchalar hukmron bo'lgan paytlarda quyosh va oyni otalik va onalik boshlang'ichi — ota va ona deb tasavvur etgan».[2, 17]

Demak, topishmoqlar bir vaqtlar muayyan magik vasifalarni ado etgan zamonlaridan boshlab, aql-zakovat, ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgi vositasiga aylangan davrlarigacha bo'lgan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Shuning uchun ham ular hayotni tasvirlash mohiyati, tuzilishi, badiiy xususiyatlari jihatidan turli-tuman bo'lib, ko'p zamonlar izini o'zlarida saqlaganlar, xalqning estetik didi, hissiy tuyg'ulari osha borgan, tabiat va jamiyatni bilish qudrati kuchaya borgan sari ulardagi mifologik tasavvurlar va qadimiy tushunchalar susaya borib, poetik bosim birinchi planga chiqa boshlagan. Natijada, topishmoq turli-tuman marosimlar bilan bog'liqligi va boshqa maishiy funksiyalarini yo'qotib, sof badiiy-estetik vazifa o'taydigan janrga aylanib qolgan. Hayotni o'ziga xos badiiy idrok etish shakli bo'lgan topishmoq folklori ommaviy janrlardan biridir. Inson va uni o'rab olgan olam topishmoqlarda ko'chimlar, o'xshatishlar, taqqoslashlar, qiyoslar, solishtirishlar, savollar vositasida o'ziga xos poetik shaklda aks etadi.

Muayyan bir xalqqa mansub bir folklor janri namunasining boshqa bir millat folklorida boshqacha nom bilan bo'lsa-da uchrashi jahon xalqlari folkloridagi janrlarning mushtarakligini yorqin namoyon etuvchi asosiy belgilardan biridir. Qolaversa, bu yana folklor janrlari tarixiy taqdiridagi mushtaraklikdan ham dalolat beradi. Masalan, topishmoq inson ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichida shakllangan qadimiy janrlardan biridir. Inson va uni o'rab olgan olamning metafora, ya'ni shartli ko'chimlar, turli o'xshatish va qiyoslashlar, epitetlar, savollar vositasida o'ziga xos badiiy shaklda aks ettirilishi topishmoq janriga xos asosiy janriy belgi bo'lib, unga tegishli ana shu yetakchi xususiyat umumiy bo'lib, dunyodagi barcha xalqlar topishmoqlariga taalluqlidir. Shu ma'noda topishmoq “xalqaro janr” hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan belgi esa dunyo bo'yicha tarqalgan xalq topishmoqlarining genetik asosdoshligini bildiradi. Bu jihati bilan u insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida favqulodda hodisa bo'lib, unda obrazli zuhur etgan hayot parchasi topishmoqning javoblari orqali reallashadi. Janrning poetik tabiatiga xos bo'lgan bunday umumiy xususiyat barcha xalqlar topishmoqlariga taalluqlidir. Demak, u-xalqaro janr. Shu bilan birga har bir xalqning topishmog'i o'sha xalq hayot tarzining ifodasi sifatida o'ziga xos jozibali va benazirdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Dunyodagi hamma xalqlarning topishmoqlarida shakli, vazifasi, ish-harakati va holati jihatidan bir-biriga o'xshash ikki predmet, narsa va hodisa jumboqlanib, ikkinchisiga xos o'xshash belgilar asosida uni topishga mo'ljallangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol yoxud topshiriq tinglovchi e'tiboriga havola qilinadi. Xalq topishmoqlari mavzusiga ko'ra boy va rang-barangdir. Ular mazmunan hayotning barcha qirralarini qamrab olgan. Topishmoqlar qadimdan hozirgacha yaratilib kelinmoqda. Hatto ular yozma adabiyotga ko'chgan.

Topishmoqlar turli joylarda o'sha joylarning lokal xususiyatlari va shevasiga ko'ra, jumboq, jummoq, jumoq, topmacha, topar cho'pchak, top-top, top-top cho'pchak, matal, masala, ushuk kabi xilma-xil so'zlar bilan ham ifodalanadi. Ammo hozirgi paytda «topishmoq» yagona ilmiy-adabiy termin sifatida to'la o'zlashdi, qolganlari esa, tor doiralarda va ayrim kekxa kishilar nutqida ishlatiladigan bo'lib qoldi.

Shakli, vazifasi, ish-harakati va holati jihatidan bir-biriga o'xshash ikki predmet, narsa va hodisadan jumboqlanib, ikkinchisiga xos o'xshash belgilar asosida uni topishga mo'ljallab she'riy yoki nasriy tuzilishda berilgan savol yoki topshiriq topishmoq deb yuritiladi. Masalan, «Bir parcha patir, Olamga tahir» topishmog'ini olaylik. Bunda to'lin oy bilan patir bir-biriga taqqoslangan va ularning shakl jihatidan bir-biriga o'xshashligi aniqlangan. Shu tariqa topishmoqning javobi — o'ning juda chiroyli va o'rinli ko'chimi — patir topilgan. Patirning inson uchun nihoyatda to'yimli ozuqa ekanligini, o'ning esa, qorong'i tunni munavvar qilishligini, har ikki holat ham insoniyat uchun qaratilganligini hisobga olsak, ular orasida juda katta ma'naviy yaqinlik borligi ham ayon bo'ladi. “Topishmoq” termini “top” buyruq fe'liga —“ish” yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan va unga “moq” formasini qo'shish bilan janr atamasi yuzaga kelgan.

Topishmoq aytishishning ham qat'iy an'analari, o'ziga xos tartib-qoidalari bo'lgan. Folklorshunos 3.Husainovanning yozishicha, «O'zbek xalqi orasida ham juda qadimda biror muayyan vaqtda, biror

marosimda topishmoq aytishish rasm bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin hozirgi vaqtda bunday aytishishlar saqlanmagan. Ammo ota-bobolarimiz kundalik mehnatdan bo'shagandan keyin, ko'pincha kechasi topishmoq aytishar ekan. Qishning kechalarii uzun bo'ladi, shunday paytlarda qadimda ayollar yig'ilib urchuq yigiradi, olacha to'qiydi, shu vaqtlarda yoki kechasi yotgandan keyin topishmoq aytishish» odati bo'lgan. Samarqand viloyatining shimoliy tumanlaridagi o'zbeklar yashagan qishloqlarda to'yga boshqa qishloqlardan kelgan odamlarni qo'ni-qo'shnilarnikiga qo'ndirganlar. Yig'ilgan mehmonlar o'rtasida chaldirmoq, jumboq aytishish ham bo'lgan».[3, 32] Demak, topishmoqni asosan qish kechalari aytish o'tmishda uning ijrosida muayyan taqiqlar bo'lganligini ko'rsatadi.

Faqat mazkur hodisa har bir xalqning milliy til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda atamalashtirilgani kuzatiladi. Aytaylik, fransuz folklorshunosligida "topishmoq" atamasi uchun "devinette" so'zi tanlangan. Fransuz folklorida insonning muhim tana a'zolaridan biri bo'lgan "ko'z" haqida shunday topishmoq aytilgan: "Qui sont ces deux frères qui vivent de part et d'autre de la route mais ne se voient jamais?" (Yo'ning qarama-qarshi tomonida yashaydigan, lekin bir-birini ko'rmaydigan ikki aka-uka kimlar?) Agar o'zbek folklorida "ko'z" haqida yaratilgan topishmoqlarni kuzatsak, ularda ham aynan topishmoq janrida ko'zni obrazlantirish uchun "ikki og'ayni" (deux frères) istiorasi tanlangani ko'zga tashlanadi: "Ikki og'ayni bir-birini ko'rmaydi".

Umuman aytganda, har ikkala xalqda ham ko'zni obrazlantirganda, ko'zning miqdoran ikkitaligi, qo'shaligiga alohida urg'u qaratilgani ayonlashadi. Jumladan:

Fransuzchada:

« Deux voisins, deux amis,

Ils se tiennent côte à côte.

S'ils pleurent, pleure ensemble

Ils rient toujours »

O'zbeklarda:

"Ikki qo'shni, ikki do'st,

Yonma-yon turishadi.

Yig'lashsa birga yig'lab,

Baravar kulishadi".

Mashhur folklorshunos olim E.B.Taylorning fikricha, "Topishmoq madaniyat tarixida maqol bilan birga paydo bo'lgan bo'lib, uning gullagan davri sivilizatsiyaning quyi va o'rta bosqichlariga to'g'ri keladi. Uningcha, topishmoq an'anaviy savol – javob shaklidagi odatda quruq hazilga olib boruvchi hozirgi so'z o'yini emas, balki u jiddiy javob berishni talab qilgan qadimiy formada tuzilgan topshiriqdir". [4, 78]

Natijalar va muhokamalar. Topishmoq ijrosi uchun kamida ikki kishi, ikki guruh yoki topishmoq aytuvchi va uni echuvchilar, javobini topuvchilar bo'lishi kerak. Topishmoq aytilishi bilan uning javobi topilgach, ketma-ket navbatdagilari aytila beradi. Shuning uchun ham topishmoq aytish hozirgi paytda aql-zakovat, ziyraklik musobaqasi, o'yin-kulgi, ko'ngil ochish vositasiga aylangan.

Xalq o'rtasida «O'zi g'ir mitti, urdi yiqitdi» (uyqu), «Otdan baland, itdan past» (egar), «Ko'k ko'ylakka g'o'za yoydim» (osmon va yulduzlar), «Qoziq ustida qor turmas» (tuxum) kabi juda keng tarqalgan topishmoqlar borki, ular aytilishi bilan darhol javobi topiladi. Ammo topishmoqlarning shundaylari ham borki, javobini topish ancha qiyin, hatto katta turmush tajribasi bor kishilarni ham o'ylantirib qo'yadi. Bunday hollarda javobni topishni engillashtiruvchi qo'shimcha ma'lumotlar beriladi, ya'ni javobni topuvchilar aytuvchidan «jonlimi, jonsiz?» deb so'raydilar. Ayrim joylarda javob topilmagach, topuvchi bilan aytuvchi o'rtasida «Sotdim-oldim» dialogi bo'lib o'tadi. Bunga ko'ra, aytuvchi topuvchining barcha tana a'zolarini «Sotib olish» orqali uni izza qiladi:

— Sotdim.

— Oldim.

— Nimasini?

— Ko'zini

— Nima qilasan?

— O'choqqa kosov qilaman.

Shu tariqa javob topolmagan shaxsning ko'zi xalojoyga shamchirog' uchun «sotib olinadi».

Shundan keyingina aytuvchining o'zi topishmoqning javobini aytgan. Javobini bilmay turib, topishmoq aytish qattiq qoralangan. Masxara bo'lishdan uyalish, tahqirlanishdan qochish istagi topishmoq aytish

o'yiniga qatnashuvchilarni ko'p bilishga, fikriy qobiliyatlarini doim o'stirib borishga undagan. «Shahar bergandagi» taqriromuz gaplar undagi ishtirokchilarni sira ham ranjitmagan, aksincha, davrada ruhiy ko'tarinkilik, xushchaqchaqlik paydo qilgan, ularning qiy-chuvi, xursandchiligiga sabab bo'lgan.

Shunda ham javob topish qiyinlashsa, «Qattiqmi, yumshoq?», «Achchiqmi, shirin?», «O'zi qanday?», «Qaerda bo'ladi?» kabi qo'shimcha so'roqlar o'rtaga tushadi. Javob topilmagach, «shahar» beriladi. «Shahar olish» topishmoqni topa olmagan kishini uyaltirish, izza qilish va shu bilan davraga xushchaqchaqlik kiritish vositasidir. Aytuvchi topishmoq javobini topolmagan kishini quyidagicha uyaltirib, so'ng o'zi javobini aytib beradi: «Shahar, unda boru munda kel, kelib mening qoshimga yiqil. Ikkalamiz ketaylik. Sen ham keta berib, tap etip bir xaloga tushding. Men ham keta berib, jarang etib bir tillaxonaga tushdim. Bir devona:— «Hey, do'st»,— deb keldi. Men bir olovkurak tilla chiqarib berdim, meni tol ko'chada alqab-alqab ketdi. Sen bordingu, bir olovkurak go'ng chiqarib berding, seni tol ko'chada qarg'ab-qarg'ab ketdi. Men ham bir otga mindim, sen bir yag'ir eshakka minding. Kunjaradan non qilib, eshakning yag'iriga kunjarani tegizib, yalab-yalab ketding. Men bordim, shinni bilan murabboga nonni tegizib, yalab-yalab ketdim. hay, sen topmasang, men topay, og'zingga katta bir tappini yopay. Uning o'zi...». [4, 17]

Darhaqiqat, 3.Husainovanning yozishicha: «O'tmishda tabiat va tabiat hodisalarining o'zi bir jumboq bo'lganki, odamlar uning sirini bilmaganlar va echa olmaganlar, ularga usirlar bir mo'jizaday bo'lib ko'ringan... Shaxs o'zini qurshab turgan tashqi obyektiv olamni taniy boshlagan bir paytda undagi narsa va hodisalarning qaysi yo'l bilan yaratilishini anglash, bilish istagida narsa va hodisalarni bir-biriga solishtirish, qiyoslash va ba'zan qarama-qarshi qo'yish bilan o'rgana boshlagan. Ular quyosh, oy, yulduzlar harakatining, chaqmoq chaqishi, ko'k guldurashi, bulut kelishi, shamol esishi, qor-yomg'ir yog'ishi kabilarning mohiyatini to'la anglab etmaganlar va animistik tushunchalarga asoslanib, ularning hammasida jon bor, deb tasavvur qilganlar. Bunday tushunchalarning ba'zi ko'rinishlari topishmoqlarda ham uchraydi. «Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi» topishmog'ida quyosh, oy, yulduzlar insonga qiyos qilinib, jonlantirib berilishi ibtidoiy tushunchalar bilan bog'liq. Chunki inson hali tabiat va uning sirlarini to'g'ri tushunib eta olmagan, totemistik tushunchalar hukmron bo'lgan paytlarda quyosh va oyni otalik va onalik boshlang'ichi — ota va ona deb tasavvur etgan».[6, 45]

Topishmoq folklorning qadimiy janrlaridan biridir. Uning paydo bo'lishi, qadimiy vazifasi va dastlabki shakli haqida olimlar turli-tuman qarashlarni ilgari surganlar. Qadimgi grek mifida Sfinks boshi ayol, tanasi sher bo'lgan qanotli maxluq sifatida tasavvur qilingan. U Fiv shahri yaqinida joylashib olib: «Kim ertalab to'rt, kunduz ikki, kechqurun uch oyoqda yuradi?»—deya topishmoq aytadi va javob topa olmaganlarni o'ldiradi. Nihoyat, Edip: «Inson bolaligida emaklaydi, ulg'ayganda tik yuradi va qariganda hassaga suyanib qoladi»,— deb bu jumboqni echadi va Fiv shahriga shoh bo'ladi.

Topishmoqlar shartli yashirin nutq asosida yuzaga kelgan bo'lib, uning zamini kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bila borish va idrok etish darajasi bilan bog'liqdir. Topishmoqlar bir vaqtlar muayyan magik vasifalarni ado etgan zamonlaridan boshlab, aql-zakovat, ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgi vositasiga aylangan davrlarigacha bo'lgan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Shuning uchun ham ular hayotni tasvirlash mohiyati, tuzilishi, badiiy xususiyatlari jihatidan turli-tuman bo'lib, ko'p zamonlar izini o'zlarida saqlaganlar, xalqning estetik didi, hissiy tuyg'ulari osha borgan, tabiat va jamiyatni bilish qudrati kuchaya borgan sari ulardagi mifologik tasavvurlar va qadimiy tushunchalar susaya borib, poetik bosim birinchi planga chiqa boshlagan. Natijada, topishmoq turli-tuman marosimlar bilan bog'liqligi va boshqa maishiy funksiyalarini yo'qotib, sof badiiy-estetik vazifa o'taydigan janrga aylanib qolgan.

Xulosa. Topishmoqlar ommaviy va keng tarqalgan janrdir. Ularda kishilikning tabiat va jamiyatga munosabatining hamma qirralari axloqiy-falsafiy tarzda baholangan. Topishmoqlar ota-bobolarning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribalarini zamonlar osha yetkazishda ma'noviy ko'prik bo'lib, avlodlarning bir-birlariga bog'lanishlarida beminnat xizmat qilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ma'lum bir xalqqa mansub folklor janrini yana boshqa bir millat folklorida boshqacha nom bilan bo'lsa-da uchratish jahon xalqlari folkloridagi janrlarning mushtarakligidan, ularning aksariyati genetik asosdoshligidan dalolat beradi. Topishmoqlar adabiyot va san'at taraqqiyotiga barakali ta'sir etdi. Ular adabiyotimiz tarixida chiston, muammo, muvashshax, ta'rix kabi lirik janrlarning paydo bo'lishi va rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bugungi kunda topishmoqlar juda katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular bolalar va yoshlarimizning fikr doirasini kengaytirish, topqirligini

o'shinish va muhokama qobiliyatini o'stirishning muhim estetik vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizova O. I. Les contes biographiques et esthétiques. Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2023 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938
2. Adizova O. I. Medieval Tales and Fairy Tales in the 17th Century. Journal of Survey in Fisheries Sciences 10(2S) 1689-1697, 2023 Skopus
3. Arnold Van Gennep Le folklore. Croyances et coutumes populaires françaises. Paris : Librairie Stock, 1924, 16 p. Édition complétée le 3 août, 2009 à Chicoutimi, Ville de Saguenay, Québec
4. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. T.: "O'qituvchi", 1978.
5. Kapisa F.S., Kolyadich T.M. Russkiy detskiy folklor // Uchebnoe posobie. M.: "Flinta-Nauka", 2002.
6. Melnikov M.N. Russkiy detskiy folklor / Uchebnoe posobie. "Prosvehenie", 1987.
7. Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. T.: "o'qituvchi", 1985.
8. M.Xamidova Fransuz va uzbek makollarda meteonimlar. Sentr nauchnix publikatsiy (buxdu.uz)32(32),2023.
9. Jumaxo'ja, Nusratullo, and Iqboloy Adizova. O'zbek adabiyoti tarihi:(XVI-XIX asr I yarmi)-O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 21-noyabr 5-sonli qaroriga asosan 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bosqichi talabalari uchun darslik. Innovatciya-Ziyo, 2020.
10. Narzullaeva, D. B. (2023, January). HISTORY OF THE TRANSLATION OF THE QURAN INTO FRENCH. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol.1, No. 2, pp. 116-118). <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1495>
11. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Musiqachi, 2010. – B. 63.
12. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. – М., 1989. – С.78. b. 470